

III-guruh iste'molchilariga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha SHARTNOMA

20 22 y. "07" fevral

46/22-son

G'azalkent shahri

Ushbu shartnomani "Chimgan-Chorbog suv ta'minoti" MCHJ, keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiluvchi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi direktor Mirdjamalov Suxrob Albartovich

(F.I.O.)

shaxsida bir tomondan, hamda keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi Shayxmatov Shavkatmurod Shavkatovich ikkinchi tomondan
asosida ish olib boruvchi direktor Shayxmatov Shavkatmurod Shavkatovich
qüyidagilar haqida tuzdilar: (F.I.O.)

I. Shartnoma predmeti

1.1. 20___ yil uchun suv yetkazish hajmi ushbu shartnomaga muvofiq III guruh iste'molchisi (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi) uchun suv yetkazib berish 3500 narx bo'yicha m³ni:

1m³ ichimlik suv uchun 3000 so'm (+QQS 15%), + 50 so'm (maxsus ustama xaq)ni;
1 m³ oqova suv uchun _____ so'm (+QQS 15%), + _____ so'm (maxsus ustama xaq)ni
tashkil qilmoqda.

O'rtacha sutkalik ichimlik suv iste'moli limiti _____ m³.

Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati _____
so'mni tashkil qildi (summa yozuv bilan).

Iste'molchiga yetkazilgan suv va qabul qilingan oqova suvlar uchun hisob-kitoblar Iste'molchi bilan avans to'lovlari tartibida, belgilangan muddatda to'liq hisob-kitob qilish sharti bilan yoki Ta'minotchi taqdim etadigan schot-fakturalar bo'yicha amalga oshiriladi.

1.2. Ta'minotchi Iste'molchini sifatli (O'zDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) ichimlik suvi bilan ta'minlash va Iste'molchidan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. Iste'molchi Ta'minotchiga, ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni keyingi oy uchun, agar hisobida yetarli miqdorda oldindan to'lovi mavjud bo'lmasa, har oyning 10 sanasigacha 70 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalariga" (keyinchalik matnda – Qoidalar deb yuritiladi) rioya etishi, shuningdek, Iste'molchi, Ta'minotchi tomonidan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ulanish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rioya qilishi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqini 1m³ ichimlik suv uchun _____ so'm, 1m³ oqova suv xizmati uchun _____ so'm to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

II. Umumiy qoidalar

2.1. Iste'molchi Ta'minotchi ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ulanishiga ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. Iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar Ta'minotchi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

2.3. Agar Iste'molchi va unga ulangan subiste'molchi turli guruh iste'molchilariga mansub bo'lsa, Ta'minotchi bilan shartnomani Iste'molchi ham, subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish asbobini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiy hisoblanadi.

Iste'molchi (subiste'molchi)ga berilgan ichimlik suv hajmi uchun to'lovlar Ta'minotchiga, ularning suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlari bo'yicha va ular mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida to'lanadi.

Ta'minotchi bilan shartnoma tuzgan Iste'molchi o'zi mansub guruhdagi subiste'molchilarga ulangan bo'lsa, subiste'molchilarga yetkazib berilgan suv va chiqarilgan oqova suv xizmatlari uchun to'lovlar asosiy iste'molchi bilan, u mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida amalga oshiriladi.

O'z navbatida, Iste'molchi, o'zi ishlatgan suv uchun Ta'minotchiga amaldagi tariflar asosida to'lovlarni amalga oshirishda subiste'molchilarga yetkazib berilgan suv hajmlarini ham inobatga olgan holda hisob-kitob qiladi.

2.4. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanilishiga quyidagi istisno holatlarda:

a) irrigatsiya suvi bo'lmaganda;
b) ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtda (soat 00–00 dan soat 05–00 gacha) yo'l qo'yiladi.

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan Iste'molchi xo'jalik-iste'mol, maishiy ehtiyoj va yong'inlarni o'chirish xamda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun foydalanadi.

2.6. Suvni hisobga olish asbobi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan tekshirilgan va tang'alangan bo'lishi va suv o'lchash tarmog'i suv ta'minotchi tashkilot tomonidan plombalanishi shart. Shuningdek, ichimlik va oqova suvni xisobga olish asbobini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi qonunchilikda o'rnatilgan tartib va qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

2.7. Iste'molchiga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash asbobining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, obyektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda Iste'molchi bilan kelishiladi.

Iste'molchida suvni hisobga olish asbobining ishlashi nazorat qilinganda, o'lchovlarning texnik tavsifnomasida yo'l qo'yiladigan minimal chegaradan kam miqdorda suv iste'mol qilingan taqdirda Ta'minotchi suv o'lchash uzeli amalda sarflanayotgan suv hajmiga mos, kichikroq diametrdagi asbobga (berilgan kundan keyingi 30 kalendar kun ichida) qayta jihozlashga ko'rsatma beradi. Bu ko'rsatma bajarilmagan taqdirda suvdan foydalanish va oqova suvlarni chiqarish uchun to'lovlar Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiya, hisoblash asboblari ishga tushirish, almashtirish, yangi subiste'molchilarining ulanishi Iste'molchi tomonidan faqat Ta'minotchi tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular Iste'molchining so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. Ta'minotchidan olingan texnik shartlar Iste'molchi buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi Ta'minotchi tomonidan, Iste'molchi va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgargan sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan Iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va Iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart.

2.11. Limitdan ortiqcha suv iste'mol qilingan holatlarda, Ta'minotchi tomonidan belgilangan tariflarga nisbatan 10,0 orttiriluvchi koeffitsiyentni qo'llash yo'li bilan haq undiriladi.

2.12. Quyidagilar Ta'minotchi bilan Iste'molchi o'rtasidagi, kommunal suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish elementlari (ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari, qurilmalari)ga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) suv iste'moli uchun — kommunal tarmoqqa ulanishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, Iste'molchining ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova suvlarni chiqarish (kanalizatsiya) uchun — Iste'molchi kanalizatsiya tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral kanalizatsiya tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi kanalizatsiya qudug'i (kamerasi) magistral kanalizatsiya tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu quduq Ta'minotchi kommunal kanalizatsiya tarmog'ining bir qismi hisoblanib, unga tutashtiruvchi foydalanish chizig'i esa Iste'molchining mablag'i va vositalari hisobidan amalga oshiriladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. Iste'molchining huquqlari:

a) Ta'minotchidan, ushbu shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz ravishda yoki Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida amalga oshirilishini, o'z mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat (O'zDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;

b) Ta'minotchidan suvni hisobga olish asboblari o'rnatish, ularni belgilangan tartibda va muddatlarda nazoratdan o'tkazishni talab qilish;

v) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun Ta'minotchidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

g) Ta'minotchini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

d) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

e) Ta'minotchidan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

yo) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida Ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

j) Sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifatli ichimlik suv bilan ta'minlanmaganlik (sifatsiz ichimlik suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

3.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

a) shartnoma shartlarini bajarish;

b) o'zlarining hududida va tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalarining zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlash, ularning buzilishi, suv bosishi va muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduqlarning qopqog'ini muz va qordan tozalash, Ta'minotchi tomonidan o'rnatilgan plombalarning saqlanishini nazorat qilish, yer usti suv oqimlarining quduqlar yonidan oqizib yuborilishini ta'minlash, yong'in gidrantlariga kirib borish yo'laklarini tirband qilmaslik, yong'in gidrantlari ko'rsatkichlarining ishga yaroqliligini kuzatib borish va mavjud bo'lgan yong'in gidrantlarini va yong'in kranlarini plombalash uchun taqdim qilish;

v) turli predmet va materiallarning uyum bo'lib saqlanishiga, shuningdek o'z hududida yoki tasarrufida bo'lgan ichimlik suv, kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalari ustida hamda ichimlik suv va kanalizatsiya tashqi joylashuvda bo'lgan (ko'chada va kvartal ichida) yerlarda biror-bir inshootlarni qurishga yo'l qo'ymaslik. Amaldagi tarmoqlarda o'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlarda avariya sodir bo'lgan taqdirda yetkazilgan zarar uchun javobgarlik qoidani buzganing zimmasiga yuklanadi;

g) tranzit kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardagi o'zlari aniqlashgan nosozliklar yoki shikastlanishlar haqida Ta'minotchiga zudlik bilan xabar berish;

d) suvni hisobga olish asboblari yaqqol ko'rinib turgan nosozliklar aniqlanganda (shu jumladan, tamg'ani butligiga shikast yetgan yoki uzib tashlanganligi to'g'risidagi holat bo'yicha ham) Ta'minotchiga uning elektron pochta orqali yoki uning yagona "Call Markazi (1255)" raqamiga qo'ng'iroq qilgan holda xabar berish;

e) shartnoma doirasidagi majburiyatlarini bajarish, joriy oyning 23-25-sanasi suvni hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini to'g'ri va o'z vaqtida qayd qilib borish, joriy oyning so'nggi sanasigacha Ta'minotchiga ko'rsatkich ma'lumotlarni Ta'minotchining elektron manzili yoki telefon raqami orqali yohud Ta'minotchi joylashgan manzilga borgan holda taqdim etish va to'lovlarni amalga oshirish;

yo) suv sarfi va oqova suvlar oqizilishining shartnomada belgilangan hajmlardan oshirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik;

j) subiste'molchilardagi suv sarfini nazorat qilish va barcha turdagi suvni yo'qotishlar oldini olish bo'yicha choralar ko'rish;

z) o'ziga qarashli va u xizmat ko'rsatishi lozim bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardan texnik jihatdan samarali foydalanishni ta'minlash;

i) ishlab chiqarish oqova suvlaridagi ifloslanish konsentratsiyasini normativdagi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan normativlarga muvofiq) me'yorlarga yetkazgan holda oldindan tozalanishini ta'minlash;

y) kanalizatsiya tarmog'iga oqiziladigan oqova suvlar sifati bo'yicha monitoring o'rnatish;

k) o'z hududida joylashgan suv o'lchash uzeli, kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida olib boriladigan barcha turdagi ishlarni bajarishga begona shaxslarni kiritmaslik;

l) Ta'minotchi vakilining ishtirokisiz quduqlar (kameralar) qopqog'ini ochishga ruxsat bermaslik;

m) kommunal drenaj tizimi mavjud bo'lgan holatlarda Iste'molchi hududida joylashgan kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga yomg'ir va erigan qor suvlarining oqizilishiga yo'l qo'ymaslik (Iste'molchiga

bog'liq bo'lmagan fors-major holatlarda oqizilishi bundan mustasno). Mazkur huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda Ta'minotchi vakili, belgilangan tartibda, Iste'molchiga nisbatan javobgarlik choralari belgilash uchun asos bo'ladigan dalolatnomani tuzadi;

n) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, inshootlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchining xizmat guvohnomasisiz biror-bir ish olib borayotgan shaxslar to'g'risida ichki ishlar organlariga xabar berish.

3.3. Ta'minotchining huquqlari:

a) Ta'minotchi, Iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin:

a.a) Iste'molchiga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqsiz bo'lganda va Ta'minotchi vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha Ta'minotchi talablari Iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;

a.b) Ta'minotchi mansabdor shaxsi Iste'molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvofiqlashtirish va Ta'minotchi naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda Iste'molchi tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganda;

a.v) Ta'minotchi tomonidan Iste'molchi ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek yangi abonentlarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

a.g) Iste'molchi tasarrufida bo'lgan suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zboshimchalik bilan ulangani aniqlanganda;

a.d) Iste'molchi tomonidan suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda;

a.ye) Iste'molchining tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlariga, qurilmalariga Ta'minotchidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan subabonentlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

a.yo) Iste'molchi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlar miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga rioya qilmaganda.

b) Ta'minotchi quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqli:

b.a) Ta'minotchining elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b.b) tabiiy ofatlar ro'y berganda;

b.v) avariya holatlarida;

b.g) yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

3.4. Ta'minotchining majburiyatlari:

a) suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

b) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

v) suv ta'minoti uzluksizligini ta'minlash (Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida suv berish holatlaridan tashqari);

g) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar (PDS) talabi va ichimlik suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomalariga muvofiq oqova suvlarni tozalash ishlarini tashkil qilishni ta'minlash;

d) tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;

ye) Iste'molchining kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlariga ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalanishni tashkillashtirishda Iste'molchiga amaliy yordam ko'rsatish;

yo) Iste'molchidagi suvning behuda oqib ketishi va oqilona foydalanilmayotganlik holatlarini aniqlash, suv berish va undan foydalanishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish;

j) Iste'molchiga suvni hisobga olish individual asboblari o'rnatish, belgilangan tartib va muddatlarda ularni nazoratdan o'tkazib turish;

z) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, inshootlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchining xizmat guvohnomasisiz biror-bir ish olib borayotgan shaxslar haqida ichki ishlar organlari xodimlariga xabar qilish;

i) shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda Iste'molchiga penya to'lash;

y) Iste'molchining shartnoma shartlariga rioya etmagani masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;

k) ichimlik suv va kanalizatsiya tizimida ro'y bergan buzilishlar aniqlangan kundan boshlab bir sutka mobaynida ularning sabablari, xizmat ko'rsatishdagi to'xtalish muddatlari va cheklanishlar, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmat sifatlarining o'zgarishi sabablari haqida Iste'molchiga axborot berish;

l) ichimlik suv va kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatishda ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uzilishlar haqida Iste'molchini uzilishlar boshlanguncha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirish;

m) ichimlik suvni iste'mol qilishga doir amaldagi va yangi joriy qilingan me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar bilan Iste'molchini aloqa vositalari (telefon, elektron pochta) orqali xabardor qilish;

n) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari tariflaridagi o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yoki boshqa aloqa vositalari (Ta'minotchining ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari, rasmiy sayti) yordamida Iste'molchini xabardor qilish;

o) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim etish.

IV. Taraflarning javobgarligi

4.1. Ta'minotchi quyidagilar yuzasidan javob beradi:

a) Iste'molchini me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlarga hamda mazkur shartnomaga muvofiq ichimlik suv bilan ta'minlash, oqova suvlarni chiqarish;

b) Iste'molchiga me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar hamda qonunchilik asoslari va shartnomada ko'rsatilgan talablarga muvofiq (O'zDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) sifatli ichimlik suv yetkazib berish;

v) Iste'molchiga ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimlariga ulanish uchun o'z vaqtida, qonuniy asoslangan texnik shartlarni taqdim etish;

g) suvni hisobga olish individual asboblari o'z vaqtida davlat nazoratidan o'tkazish, belgilangan muddatlarda Iste'molchidagi suvni hisobga olish asboblarning yechib olinishi, o'rnatilishi, ko'rsatkichlari nazorat qilinishi va tekshiruv o'tkazilishi haqida ogohlantirish;

d) Iste'molchining mulkiga yetkazilgan moddiy zarar uchun qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda javob berish;

e) shartnoma shartlari va o'ziga yuklangan majburiyatlarni bajarmaganlik.

4.1.1. Ta'minotchi Iste'molchini suv bilan ta'minlashda quyidagi sabablarga ko'ra uzilishlar bo'lganligi uchun javob bermaydi:

a) Qoidalarining 129-bandida sanab o'tilgan sabablarga ko'ra suv berish to'liq yoki qisman to'xtaganda;

b) Iste'molchining aybiga ko'ra.

4.1.2. Ta'minotchi, agar suv ta'minoti bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining yengib bo'lmaydigan kuch yoki suv ta'minoti xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma shartlari Iste'molchi tomonidan buzilganligi tufayli sodir bo'lganini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda isbotlasa, u sifat buzilganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

4.1.3. Tozalash inshootlari, nasos stansiyalari quvvatining yoki kommunal suv quvurlarining suv o'tkazish quvvatining yetarli emasligi tufayli suv ta'minotida muntazam ravishda uzilishlar bo'lgan taqdirda Ta'minotchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishgan holda, Iste'molchini unga suv berilishi rejalari haqida xabardor qilib, alohida tumanlarga suv berilishi yuzasidan javob beradi. Shu bilan birga, Ta'minotchi Iste'molchini suv bilan normal ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan sabablarni bartaraf etishga doir barcha zarur tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, shuningdek suvni hisobga olish asboblari mavjud bo'lmaganda - suvni berish soatlariga mutanosib ravishda qayta hisob-kitob qilinishi yuzasidan javob beradi.

4.2. Iste'molchi quyidagilar yuzasidan javob beradi:

a) kanalizatsiya tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarini suv bosishidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi qurilmalarning butligi, saqlanganligi, ishga yaroqliligi va normal texnik holatdaliigi uchun;

b) O'ziga qarashli sanitariya asboblari, kanalizatsiya tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tambaning yo'qligi, reviziyalarning zich yopilmasligi, nosoz texnik holati tufayli Iste'molchining kanalizatsiya tarmoqlarida yoki Ta'minotchida, ichimlik suv va kanalizatsiyaning tashqi tarmoqlarida avariya (tiqilib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarini suv bosishi oqibatida yetkazilgan zarar uchun;

v) Ta'minotchi bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvni hisobga olish asbobi, aylanma liniya zulfini, yong'in zulfinlari, gidrantlar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda Ta'minotchi tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plomбалarning butligi va saqlanishi uchun;

g) Ta'minotchiga ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarining shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda.

4.3. Suvni hisobga olish asbobi va stvol zulfinidagi plomбaning saqlanmaganligi va but emasligi aniqlangan taqdirda, so'nggi dalolatnoma tuzilgan sanadan e'tiboran, ammo eng ko'pi bilan uch oydan oshiq bo'lmagan davr uchun, to'lovlar Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Plombalangan yong'in zulfinlari va gidrantlaridagi plomбалarni uzishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

a) Ta'minotchi bilan kelishilgandan so'ng suv ta'minotining yong'inga qarshi tizimi faoliyati tekshirilganda va yong'in nasoslari sinovdan o'tkazilganda;

b) Ta'minotchini xabardor qilmagan holda yong'in o'chirilganda va yong'in xavfsizligi organlari tomonidan yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimining sinovlari o'tkazilganda.

4.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalanish to'xtatilganda iste'molchi 24 soat mobaynida Ta'minotchiga plomba uzilgani to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi va zulfinlarni plomбалash uchun Ta'minotchi vakilini chaqirishi shart.

4.6. Suv quvuriga o'zboshimchalik bilan ulangan, sovuq suvni hisobga olish asboblarning buzilishiga ataylab yo'l qo'yan, shuningdek ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida hisobga olish asboblari tashqaridan aralashgan iste'molchilar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarning tartibi

5.1. Iste'molchi Ta'minotchiga, ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni keyingi oy uchun, agar hisobida yetarli miqdorda oldindan to'lovi mavjud bo'lmasa, xar oyning 10 sanasiga qadar 70 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirishi lozim.

5.2. Iste'molchi shartnomada belgilangan to'lovlarni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda to'lovlarning kechiktirilgan har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.3. Ta'minotchi shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar (bajarilmagan ishlar) bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.4. Iste'molchi ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni shartnomada belgilangan shartlar asosida va tartibda o'z vaqtida to'lamasa, Ta'minotchi Iste'molchini yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab 5 ish kuni o'tgandan keyin qarzlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iste'molchini ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'li bilan undirish choralarini ko'radi.

Ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimidan ilgari uzib qo'yilgan (o'zboshimchalik bilan ulanish, qarzдорlik mavjud bo'lganda yoki shartnoma shartlari bajarilmaganda) Iste'molchini qayta ulashda Iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali 3 kundan kechiktirmay tarmoqqa qayta ulanadi.

5.5. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, ichimlik suv tarmog'idan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, iste'mol qilinuvchi ichimlik suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari xisobi uchun 2,0 koeffitsiyentgacha qo'llaniladi.

5.6. Obyekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda Ta'minotchi tashkiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv obyektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda kommunal kanalizatsiya tizimiga oqovalarni oqizish hajmi o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash asbobining ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

Iste'molchiga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi kerak.

VI. Alohida shartlar

6.1. Obyekt egasi o'zgarganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarini to'lab, bu haqda Ta'minotchi bilan dalolatnoma imzolashi shart. Iste'molchi chiqib ketgach, suvni hisobga olish asbobi, plombalarning butligi va qoplanmagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik obyektning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. Quydagi holatlarda sarflangan ichimlik suv miqdori Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq hisoblanadi:

a) agar Iste'molchi suvni hisobga olish asbobi bilan ta'minlanmagan bo'lsa;
b) suv o'lchash asbobi yoki moslamasi Ta'minotchida ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa;
v) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalariga o'zboshimchalik bilan ulanib olinganda (o'zboshimchalik bilan ulanish aniqlangunga qadar oxirgi tekshirish dalolatnomasi tuzilgan kundan, shuningdek agar o'zboshimchalik bilan ulanish Ta'minotchiga tegishli tarmoq va qurilmalarga nisbatan bo'lgan bo'lsa, o'zboshimchalik bilan ulanish kunidan boshlab u aniqlangunga qadar, biroq uch oylik muddatdan ko'p bo'lmagan holda);

g) suvni hisobga olish asbobi Iste'molchi aybi bilan ishdan chiqqan (suvni hisobga olish asbobi sifatsiz suv bilan birga oqib keluvchi qum, tosh va loyiqa yig'ilishi natijasida ishdan chiqqanligi haqida tegishli xulosa mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno), singan, buzilgan va bu haqda Ta'minotchi xabardor qilinmagan taqdirda (bunda sarflangan suv miqdori, so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan to yangi suvni hisobga olish asbobining o'rnatilish sanasigacha, ammo uch oydan oshiq bo'lmagan muddat uchun hisoblanadi);

d) suvni hisobga olish asbobi Iste'molchiga Ta'minotchi tomonidan ogohlantirish xati yuborgandan so'ng belgilangan muddatda davriy qiyoslovdan o'tkazilmaganda.

6.3. Suvni hisobga olish asbobi iste'molchining aybisiz nosoz bo'lgan taqdirda sarflangan suv miqdori oldingi uch hisob-kitob oyidagi o'rtacha sarf bo'yicha aniqlanadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obyektni loyخالastirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan yoki muddati o'tgan hollar Ta'minotchi tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.5. Iste'molchi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda Ta'minotchi tomonidan xokim qarori, kadastr hujjatlari va shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar Ta'minotchi tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida amalga oshiriladi. Bu to'lovlar Iste'molchi tomonidan 3 ish kuni ichida akseptsiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda Ta'minotchi kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0,4 foiz penya hisoblaydi, ammo uning umumiy qiymati asosiy to'lovning 50 foizidan oshmasligi lozim.

6.7. Shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi kommunal kanalizatsiya tizimiga jala suvlari ruxsat etilmagan holda oqizilgan taqdirda iste'molchiga nisbatan ishlab chiqarish oqova suvlarini oqizganligi uchun amaldagi tariflarga nisbatan qo'shimcha uch barobarlik koeffitsiyent tatbiq etiladi. Hisob-kitob tashkilotning maydoni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalarini hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblash tartibiga muvofiq kadastr va meteorologik ma'lumotlarga binoan amalga oshiriladi.

6.8. Oqova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha me'yorlar bilan belgilangan oqizishning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdoridan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan normativlarga muvofiq) ortiqcha oqova suvlar va ifloslantiruvchi moddalarning chiqarish taqiqlanadi.

6.9. Ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiqcha oqizganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblab yozish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida Iste'molchi yoziladigan e'tiroznomani to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda Ta'minotchiga u joylashgan manzilga borgan holda yoki Ta'minotchining telefon raqami, elektron pochta yohud pochta xizmati orqali taqdim etishi kerak. E'tiroznoma Iste'molchini to'lov talabnomasi va xujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

E'tiroznoma Ta'minotchi tomonidan 10 kun muddatda ko'rib chiqiladi. Ular asosli deb topilsa, to'langan ortiqcha summa keyingi to'lov hujjati hisobiga o'tkaziladi. Iste'molchi e'tiroznoma ko'rib chiqilganligi to'g'risidagi ma'lumotdan, u taqdim etgan telefon raqami (shu jumladan mazkur telefon raqamning telegram ijtimoiy tarmog'idagi profili) yoki pochta xizmati orqali, e'tiroz ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan muddat tugagandan keyin 3 kun muddatda xabardor qilinishi lozim.

Agar ko'rsatilgan muddat ichida iste'molchi xabardor qilinmasa, masala iste'molchi foydasiga hal qilingan hisoblanadi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida ushbu shartnoma shartlarining bajarilishi va shartnomaga oid boshqa holatlar yuzasidan kelib chiqadigan nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi orqali hal qilinadi. Taraflar tomonidan nizolar bo'yicha o'zaro kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Iste'molchi joylashgan manzildagi tegishli sudlar orqali hal qilinadi.

VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda aloqa vositalari (telefon raqami, ijtimoiy tarmoqdagi profililar va rasmiy sahifalar) orqali ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatlari shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Ushbu shartnoma ikki nus'hada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va "_____" 20____ yilgacha amal qiladi.

9.3. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda rasmiylashtirilishi va taraflar tomonidan imzolanishi shart.

X. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:

« TA'MINOTCHI »

Manzil : G'azalkent shahri, Bo'ston ko'chasi 2a uy

Tel: 0-370-74-21869, faks 74-28527

Bank: ATIB Ipoteka bank Chirchiq filiali

Bank kodi: 00478 STIR: 203732506

XHTUT: 36000

H-r 22638000704142939447

Qabul qiluvchining ro'yxatdan o'tish kodi

QQS 327030013444

E-mail: chingan-chorvoq@uzsuv.uz

Direktor _____ S.A.Mirdjamalov

M.O' _____ (F.I.O. imzo)

« _____ » 202__y.

« ISTE'MOLCHI »

Manzil _____

Tel: _____, faks _____

g'az/h-r _____

Bank _____

Bank kodi _____

XHTUT _____

Shaxsiy raqam _____

Shaxsiy h-ir _____

Bank _____

Bank kodi _____

(g'aznachilik bo'linmasi nomi)

Rahbar _____

M.O' _____ (F.I.O. imzo)

« _____ » 202__y.

Yuridik xulosa:

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarorlik Kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq tuzilgan.

Yuriskonsult: _____

« _____ » 202__y.